

## **O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI TARBIYAVIY MAQOMINI YUKSALTIRISH VA BUGUNGI TIL SIYOSATINING MOHIYATI**

*Allayorova Zebo,  
Shahrisabz pedagogika instituti*

*Annotatsiya: maqolada o'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini yuksaltirish va bugungi til siyosatining mohiyati, davlat tilining ahamiyati, keyingi yillardagi taraqqiyoti, mavqeyi, uni rivojlantirishning chora-tadbirlari, islohotlar, mamlakatda til siyosatining mohiyati borasida fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar bayon qilingan.*

*Kalit so'zlar: davlat tili, ma'naviyat, til siyosati, islohotlar, jamiyatning tilga munosabati, davlat tilida ish yuritish, til va jamiyat*

## **ПОВЫШЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО СТАТУСА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ГОСУДАРСТВЕННОГО И СУЩНОСТЬ ЯЗЫКОВОЙ ПОЛИТИКИ СЕГОДНЯ**

*Аллаярова Зебо,  
доцент Шахрисабзского педагогического института*

*Аннотация: В статье изложены соображения, предложения и рекомендации по повышению образовательного статуса узбекского языка как государственного языка и сущности сегодняшней языковой политики, значимости государственного языка, его прогресса в последующие годы, позиции, меры по его развитию, реформам, характеру языковой политики в стране.*

*Ключевые слова: государственный язык, духовность, языковая политика, реформы, отношение общества к языку, ведение дел на государственном языке, язык и общество*

## **IMPROVING THE EDUCATIONAL STATUS OF THE UZBEK LANGUAGE AS THE STATE LANGUAGE AND THE ESSENCE OF LANGUAGE POLICY TODAY**

*Allayarova Zebo,  
Associate Professor of Shakhrisabz Pedagogical Institute*

*Abstract: The article presents considerations, suggestions and recommendations for improving the educational status of the Uzbek language as the state language and the essence of today's language policy, the importance of the state language, its progress in subsequent years, positions, measures for its development, reforms, and the nature of language policy in the country.*

*Keywords: state language, spirituality, language policy, reforms, society's attitude to language, doing business in the state language, language and society*

Til siyosatiga til masalalarini siyosiy, huquqiy va ma'muriy tartibga solish tizimi, mamlakatdagi til vaziyatiga rejali ta'sir qilish mexanizmlari sifatida qarash ham til siyosati tushunchasi mohiyatini ochishda yetarlicha asos bo'ladi. Bu jihatlar R.Zaripov tadqiqotlarida yetarlicha ochib berilgan bo'lib, olim til siyosati tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi: "Til siyosati deganda davlatda, jamiyatda til masalalarini siyosiy, huquqiy va ma'muriy jihatdan tartibga solish tizimi, til muammolarini hal qilish bo'yicha mafkuraviy tamoyillarning rasmiy-amaliy tadbirlari majmui, mamlakatdagi til vaziyatiga rejali ta'sir

qilish mexanizmlari nazarda tutiladi” .

“Agar siz faqat bitta tilda gaplashsangiz ham sizda dialekt va uslublarni tanlash imkoniyati mavjud. Ushbu jarayonning mohiyatini tushunish uchun ijtimoiy tuzilmalar va vaziyatlarni lingvistik repertuarlar bilan bog‘laydigan ekologik model kerak” .

Yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy kommunikativ amaliyot ingliz tilini boshqa tillarga kuchli ta’sir o‘tkazishi uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Masalan, tashqi ta’sirlarga nisbatan juda katta so‘z boyligi, retseptivlik va moslashuvchanlik, moslik va o‘tkazuvchanlik bu ingliz tilining nafaqat rivojlanishiga, balki yangi hududlarni egallashiga imkon beradigan xususiyatlardir .

50-yillarning oxiri 60-yillarning boshlaridan sotsiolingvistik tadqiqotlar SSSRda yana rivojlandi. Ular juda ko‘p amalga oshirildi. Biroq 80-yillarning ikkinchi yarmiga qadar bu tadqiqotlar ma’lum darajada qat’iy sxemalarga bo‘ysungan, ko‘pinchahaqiqatdan uzoq, oddiy iboralar: “Bizning mamlakatimizda barcha tillar tengdir. Har bir xalq o‘z ona tilidan foydalanadi, shuningdek, rus tilini millatlararo muloqot tili sifatida bimalol ishlatadi ...”

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni faqatgina o‘zbek xalqininggina emas, balki, respublikadagi boshqa xalqlarning ham milliy-madaniy taraqqiyoti kafolatini ta’minlaydi: “Davlat tili haqida”gi Qonun mamlakatda yashayotgan turli millat vakillarining manfaatlarini ham himoya qiladi, ularning ona tillarini, madaniyatini rivojlantirish, milliy urf-odat va an’analarini saqlab qolish, yashash hamda ishlashlari uchun tengma-teng sharoit yaratib berishni ta’minlashni ham ko‘zda tutadi» .

Prezidentimizning quyidagi so‘zlarida keyingi yillarda mamlakatda davlat tiliga munosabatni ko‘rishimiz mumkin: Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada, hayotimizga chetdan ko‘plab yangi tushuncha, so‘z va iboralar kirib kelmoqda. Globalashuv sharoitida milliy tilimizning softligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarining o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi .

O‘zbekiston uchun milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi yaqin yillardagi hodisa emas. U qadim ildizlarga ega bo‘lgan milliy tuyg‘udir. Rus sharqshunosi L.N.Gullilev yozadi: «Dunyoda uchta: xitoy, fors va turkiy millat, milliy xususiyatlarni saqlashni qadim-qadimdan ilk rejaga qo‘yib kelgan. Ayniqsa, bu borada turkiy xalq qat’iy yo‘l tutgan. Xitoy solnomalarida saqlangan turkiylar hayotiga oid bitiklarda turkiylarning o‘ta millatparvarliligiga ko‘p urg‘u berib o‘tilgan» . Yana bir rus sharqshunosi I.Bichurin deydi: «Men dunyoda milliylikni saqlash va uni taraqqiy ettirishda turkiylardek ulug‘ millat ko‘rmadim» .

Istiqbolga erishganimizdan keyingi o‘n yillikda mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi arafasidagi, mustaqillikning dastlabki davr tahliliga oid bir qator maqolalar

Mamlakatlar ko‘p, ammo hammasida ham mahalliy xalqning ona tili davlat tili maqomida emas. Bu imkoniyat ko‘p millatlarda yo‘q, biroq o‘zbek tili davlat tili sifatida tan olinganiga o‘ttiz yildan oshyaptiki, vatandoshlarimizning unga bo‘lgan munosabati maqtanadigan darajada emas. Faqat ayrim ijodkorlar, yozuvchilar, fidoiy insonlargina qayg‘urib keldilar. Jumladan, xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni – Erkin Vohidov o‘z ijodida, asosan, yo‘qolib borayotgan, tobora unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qalamga olar edi. U kishining millatparvarligi, vatanparvarligi barchamizga namuna darajasidadir. Balki, hozir hayot bo‘lganlarida hukumatimiz tomonidan ona tilimizga ko‘rsatilayotgan yuksak e‘htiromdan ilhomlab yana bir qancha nodir asarlar yaratgan bo‘lardir. Zero, shoirning tilga munosabati, sevgisi o‘zgacha edi. Alisher Navoiy olim sifatida “Muhokamat ul lug‘atayn” asarini yozib turkiy tilning olamda tengsiz ekanligi

ko'rsatib bergan bo'lsa, shoir Erkin Vohidov ham umrining oxirlarida ona tilidan hayoti davomida beminnat foydalangani uchun unga mo'jazgizna bir ramziy haykal qo'yib ketdi. Bu – "So'z latofati" asaridir. Unda o'zbek tilining naqadar boy ekanligi, uning ma'no tovlanishlari, milliy tilimizning o'ziga xos jozibasi yorqin misollar asosida bayon qilgan. Asarda shoir tilshunoslarga shunday murojaat qiladi: "Olimlar, topib beringchi, qaysi tilda quyoshning o'nta ismi bor! Qaysi tilda osmonni kamalakdek yetti xil nomlashadi? Osmon, samo, falak, gardun, ko'k, charx, fazo. Arsh, davvor va minu singari kam ishlatiladigan nomlari ham mavjud". Bu asar tilshunoslarimizga ham istiqboldagi vazifalarni belgilab olishida o'ziga xos bir mayoq vazifasini bajarishi mumkin. Erkin Vohidovga boshqa shoirlarimizdan farqli o'laroq bunday tadqiqiy asarni yozishga, balki badiiy tarjima bilan shug'ullangani turtki bo'lgandir. Shoir jahonning bir qancha mumtoz asarlarini ona tilimizga mahorat bilan o'g'irgan paytda tilimizning latofatini bizdan ko'ra yaxshiroq his qilgandir. Har bir o'zbekning uyida bunday asarlar, albatta, bo'lishi kerak. Uni o'qigan kishida o'z tiliga bo'lgan muhabbati yanada oshishi tayin.

Milliy til qadr-qimmatini haqida o'ylaganda beixtiyor shoirning "Do'ppi kiyimay qo'ydi odamlar" she'ri yodga tushadi. Darhaqiqat, milliy bosh kiyimimiz, o'zbekligimiz ramzi hisoblangan – do'ppi bunga yorqin misol bo'la oladi. Yurtimizning turli hududlarida "qalpoq", "kallapo'sh", "taqiya" kabi har xil nomlanadigan ushbu tabarruk kiyimdan odamlar to'yda, asosan, azalarda foyalanadigan, ba'zi xos kishilargina doim kiyib yuradigan bo'lib qoldi. O'zbek tiliga munosabat ham shu do'ppidan ortiq emas. Vaholangki, bu til vositasida hamma o'z tirikchiligini o'tkazadi, shuning uchun mamlakatimizdagi har bir fuqaro o'zbek tilining o'z hayoti va faoliyatidagi ahamiyati haqida chuqurroq o'ylab ko'rishi kerak. Shuningdek, biz boshqa tilda muloqot qiluvchi vatandoshlarimizga ham o'zbek tilini kengroq o'rganishlariga imkon berishimiz, ya'ni ular bilan o'zbek tilida gaplashishimiz lozim. Shu yurtda umr kechirib adabiyotimizni, madaniyatimizni, tariximizni, bizni yaxshiroq anglashlari uchun ham ularga o'zbek tilida gaplamlash olish malakasini shakllantiradigan muloqot muhitini yaratib berishimiz kerak.

Dunyoda shunday tajriba bor: ingliz tilini yaxshi o'rganish uchun Britaniya yoki AQSh, (hatto Hindiston) ga borib, olti oy yashab kelsang, o'rganasan. Biz mamlakatimizga chet eldan kim kelsa, uning tilida gaplashaversak (rasmiy muloqotlardan tashqari) yurtimizda ham xorijda ham o'zbek tilining nufuzini oshira olmaymiz. Qaysi davlatga bormang, u yerda samarali o'qish, ishlash yoki yaxshi yashab ketish uchun, albatta, ularning tilini o'rganishga majbur bo'lasiz. Masalan, Xitoyni olaylik, 10 yil oldin O'zbekistonda hech kim xitoy tilini o'rganmas edi, hozir tadbirkorlarimiz, talabalarimiz bu tilda bimalol gaplasha olishadi. Buning sababi shuki, xitoyliklar boshqa davlatlarda siz bilan xalqaro til hisoblangan ingliz tilida gaplashadi, biroq o'z yurtida faqat xitoycha muloqot qiladi. Bu shundan dalolat beradiki, xalq o'z tilini hurmat qiladi, milliy g'ururi mustahkam. Natijasi shuki, butun dunyo xitoychani o'rgandi. Buning aksi o'laroq, Hindiston aholi son, ishlab chiqarish jihatidan Xitoydan qolishmaydi, ammo u yerga borib ishlash, o'qish yoki sayohat qilish uchun hindchani o'rganish shart emas, tashrif buyuruvchilar bunga ehtiyoj sezmaydi, ingliz tilini bilsa bo'ldi. Natijada ko'p sonli millatning tilini dunyo o'rganayotgani yo'q. Bu til faqat o'zro so'zlashuv maqomida, asosan, mamlakat hududida amal qiladi. Endi dunyoda hech qaysi xalqdan qolishmaydigan eng boy va qadimiy o'tmishi, ilmiy-badiiy merosi, dunyo tamadduniga munosib hissa qo'shgan ajdodlari bor millat tilining nufuzi qanday bo'lishi kerak?! Bu haqda har bir O'zbekistonlik o'ylab ko'rmog'i lozim.

Tilimizning taqdiri o'zimizning qo'limizda. AQSHning mamlakatimizdagi elchisi

– Daniyel Rozenblum janoblari har safar ijtimoiy tarmoqlarda dunyoning ko‘z o‘ngida o‘zbek xalqiga davlat tilida murojaat qilganda millatimizning har bir vakili cheksiz faxr va iftixor tuyg‘usini his etishi tabiiy. Bugun O‘zbekistonning buyuk kelajagini ko‘ra olgan har bir xalq bizning boy va betakror madaniyatimizni, qadimiy tariximizni o‘z tilimiz orqali o‘rganishga intiladi. Buning uchun har birimiz davlat tiliga hurmat ko‘rsatishimiz, o‘z faoliyatimiz mobaynida o‘zbek tilini sevrishimiz, uni qadrlashimizni namoyon etishdan charchamasligimiz kerak. Shunda tilimizning nufuzi kun sayin ortib boradi.

Yangi tashkil etilgan firmaga zamonaviy bo‘lsin deb “Bravo”, yangi ochilgan bog‘chaga “Hello Kinds”, “Little Kinderland”, yangi mahsulot ishlab chiqilsa “Tizer”, do‘kon ochilsa “Comford”, deb nom qo‘yilmoqda. Xaridorlar, mijozlar deyarli o‘zbek bo‘lgani holda ajnabiy nom qo‘yishdan kimga nima naf? Yo inglizcha nom qo‘ysa, xizmat yoki mahsulot narxi juda oshib ketadimi? Mahsulotni mobodo chet elga eksport qilish zarurati bo‘lsa ham nom o‘zbekcha bo‘lgani ma‘qul-ku, mahsulotni sifatiga qarab olishmaydimi?! Bog‘cha, xususiy maktablarga keladigan bo‘lsak, muassasa nomi inglizcha bo‘lgani bilan ichidagi xizmat sifatsiz bo‘lsa, baribir o‘quvchi, tarbiyalanuvchi kelmaydi. Zamonaviy bino qurib, malakali o‘qituvchini ishga olib, yoki sifatli mahsulot chiqarib o‘zbekcha nom qo‘ygan yaxshi emasmi? Bu borada boshqalarga namuna bo‘ladigan yurtdoshlarimiz ham bor. Toshkent shahrida “Viqor” nomli savdo do‘konlari bor, mijozlari ham hech kimnikidan kam emas. Umumiy ovqatlanish uchun ochilgan oshxona, choyxona, restoranlarning aksariyati mahalliy xalqqa xizmat qilsa ham nomlanishi ruscha yoki inglizcha. Bunday nomlanish kimga kerak, sayyohlar, xorijlik fuqarolar uchun uning nomi muhim emas. Shukurki, Vatanimizda ma‘naviy jihatdan yetuk, milliy g‘ururi uyg‘oq, vatanpavar tadbirkorlarimiz ham yo‘q emas. Masalan, “Rayhon”, “Yalpiz”, “Milliy taomlar” kabi tamaddixonalar ajnabiy nom qo‘yib olgan bororta restorandan kam emas. Shu o‘rinda aytish kerakki, ayrim nomlar o‘zbekcha bo‘lsa-da, ruscha imlo qoidalariga muvofiq yozilmoqda. Misol uchun “Marakand”, “Aziya”.

Antroponimlar – shaxs nomlari masalasida ham o‘ziga xos muammolar mavjud. O‘zbek ismlar lug‘ati chop etilgan, elektron varianti ham, mobil ilova shakllari ham bor. Islomiy ismlar qo‘yish yaxshi, biroq o‘zbek tili qayerda ishlatiladi?! Ism tanlash ixtiyoriy ekanligi ma‘lum, biroq O‘zbekcha ismlar lug‘atini ham yaratib, xalqqa yetkazish vaqti kelgan. Har kun tilimizdan tushmaydigan, faol ishlatiladigan sevimli so‘zlar – farzand va nabiralarning ismlari, asosan, arabcha va forscha. Ota-onalar o‘zbekcha nom qo‘ysa (ular o‘zbekcha deganda O‘roq, Bolta, Tesha, Bo‘ri, Qo‘chqor kabi nomlarni tasavvur qilishadi), bola masxara bo‘ladi, hurmatsizlanib qoladi, deb o‘ylashsa kerak. Barchaga ma‘lumki, ism insonni emas, inson ismni ulug‘laydi. So‘zning qadr-qimmatini haqida gap borganda ism, nom, ot sinonimik qatorini olaylik: ism – arabiy, nom – forsiy, ot – o‘zbekcha. Bu uchala so‘zning maqomiga e‘tibor bering: ot so‘zi adabiy tilda zinhor shaxsga nisbatan ishlatilmaydi. Shaxsga ism va nom so‘zlari munosib ko‘riladi. Uzoq qishloqlardagina kishilar bir-biridan “Oting nima?” deb so‘rashadi. Ayrim markazdan uzoq tuman, ovullarda odamlar aziz farzanlarini o‘zbekcha so‘zlar bilan ataydi: Tangriberdi, Uyg‘un, Turg‘un, Tilovberdi, Go‘zal, Barchinoy, Otabek, Oybek, Ulug‘bek, Temir, Kumush, Olmos, Oltin, Toshbek, To‘rabek kabi. Ta‘kidlash joizki, Abdulla Qodirining bosh qahramonlari bo‘lgan Otabek va Kumush so‘z o‘zbekcha ismlardir. Shu o‘rinda xalqimizga o‘ziga xos ovozi bilan tanila boshlagan qo‘shiqchi – Yorqinxo‘janing ismiga e‘tibor bering, qanday yarashib turibdi, iqtidori ham, surati va siyrati ham ismiga mos yorqin. Kelajagi ham porloq, shunday ismlar, nomlar qo‘yilsa, yaxshi-ku. Shu ma‘noda o‘zbekcha ismlarning ommalashishi, milliy tilga bo‘lgan turg‘un qarashlarning

tez sur'atlarda ijobiyga o'zgarishi el nazaridagi insonlarning munosabatiga bog'liq ekanligini ham inobatga olish lozim. Modomiki, mustaqil davlat ekanmiz, ismimiz millatimizni anglatishi kerak. Tildagi so'zlar yashab qolishi, takomillashishi uchun uni har kun ishlatishimiz kerak. Tilimiz Maxatma Gandi, Konfutsiy, Mark Tven, Yamamota, Yu Jin, Tangemlar kabi o'zimizgagina xoslikni ifoda etsin, ismlarimiz xalqaro maydonda millatning tashrif qog'oziga aylanishi kerak. Masalan, Otabek.

Davlat tilini takomillashtirishga doir barcha ishlarni muvofiqlashtiruvchi Vazirlar Mahkamasida faoliyat ko'rsatayotgan Davlat tilini rivojlantirish departamenti o'zbek tilida ish yuritilishini nazorat qilish tizimini muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilganini ta'kidlash lozim. Har bir vazirlik, jamoat tashkilotlarida joriy etilgan o'rinbosar maqomida davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga amal qilinishini ta'minlash masalalari bo'yicha rahbar maslahatchisi lavozimlariga filolog va jurnalist mutaxassisligiga ega nomzodlar suhbat asosida tanlab olindi va tayinlandi. Bu borada dastlabki ikki asosiy vazifani tayinlangan maslahatchilar amalga oshirishga kirishishgan. Avvalo, vazirlik, tashkilotlar tasarrufidagi ichki va tashqi hududlarda e'lon, peshtaxta, shior kabilarning davlat tili qoidalariga mosligini o'rganish bo'lsa, navbatdagi vazifalar hujjatlarning davlat tilida yuritilishini tartibga solish, shuningdek, xodimlarning davlat tilini bilish darajalarini aniqlash, sohaga doir atamalarning qo'llanilishini tartibga solish kabilar.

Dastlabki kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, ish yuritish, qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqishda o'zbek tilining qo'llanilishi, shuningdek sanoat, moliya, harbiy, bank, bojxona va adliya sohalarini davlat tili to'g'risidagi qonunga muvofiqlashtirish ayrim ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishini ham taqozo etadi. Masalan, xususiy firma va korxonalarining soni ko'pligini inobatga olsak, advokatlik firmasini ochish uchun "Haqiqat", "Adolat", "Shafqat" kabi nomlar barmoq bilan sanoqli. Bu borada Davlat xizmatlari agentligiga talabdan tashqari yordam ham kerak bo'ladi. Davlat statistika qo'mitasidan ro'yxatdan o'tayotgan yangi davlat korxonalari ham Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan yoki Davlat tilini rivojlantirish departamenti bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib olsa, muammolarning oldi olinadi.

Xullas, davlat tilining mavqeyini oshirishning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bugun davlat tili masalasi hukumat darajasidagi muammoga aylangan, uning nufuzini oshirishga barcha soha vakillarini safarbar qilish mexanizmini ishlab chiqish, soha imkoniyatlaridan kelib chiqib ma'naviy-ma'rifiy sohada davlat tiliga munosabati aks etgan media mahsulotlar tayyorlash; o'zbekcha ismlar lug'ati va uning elektron hamda mobil ilova shakllarini yaratish; televideniya tele-shou shaklida "O'zbekcha gaplashamiz" ko'rsatuvini tashkil etib, unga taniqli olim, shoir, yozuvchi, san'atkor, jurnalist, rassom, uchuvchi va boshqa el ardog'idagi kishilarni taklif qilib ularning tilga munosabatini namoyish qilish kerak; atamashunoslikni tartibga solishda xususiy sektor uchun Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini, davlat tashkilotlari uchun davlat statistika qo'mitasi faoliyatini kuzatib, kerakli xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PrezidentShavkatMirziyoyevningo'zbektiligadavlattilimaqomiberilganiningo'tti zylligigabag'ishlangantantanalimarosimdaginutqi. 21-Oktyabr 2019-yil. <http://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>

2. Zaripov R.E. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: Filol. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD)... diss. – Andijon, 2021. – 35 b.

3. Haugen. Blessings of Babel: Bilingualism and language planning: Problems and pleasures, Berlin, New York, and Amsterdam: Mouton de Gruyter. 1987. P.27.

4. Сескутова И.К. Многомерность коммуникативного пространства современного медиадискурса // *Стилистика и проблемы контекста*. - М., 2009. - С. 70-81.
5. Crystal D. *The English language*. - L., 2002. - 312 p.
6. Ханазаров К. Х. Сближение наций и национальные языки в СССР Ташкент, 1963. С. 27.
7. Фозилов Э. И. “Ўзбекистон ССРнинг давлат тили ҳақида”ги Қонунини амалга ошириш юзасидан белгиланган тадбирларнинг бажарилиши ҳақида // “Ўзбекистон ССРнинг давлат тили ҳақида”ги Қонунини олий ва ўрта махсус таълим юртлирида амалга оширилиши. – Т.: ТДТУ, 1991. – Б. 7.
8. Гуллилев Л. Н. Древний тюрки. – Москва: Наука, 1967. – С. 90-91.
9. Бичурин И. История народов обставних в Средней Азии древний времена. Том I. Москва, ИВЛ, 1950. – С.105.
10. Аҳмедов Б. А. Темурнинг давлатни идора қилиш сиёсати // *Мулоқот*, 1994, №5-6.
11. Vohidov E. *So‘z latofati*. –Toshkent. O‘zbekiston, 2014. 102 b.